

## O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA TEMURIY MALIKALAR OBRAZI

Eshniyozova Matluba Ne‘mat qizi

ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta‘limi fakulteti 4-kurs

eshniyozovamatlyuba@gmail.com +998932303103

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20622699>

### Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida Temuriy malikalar obrazining badiiy talqini va tarixiy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xonzoda begim, Gulbadan begim hamda boshqa temuriy malikalarning mumtoz adabiyot namunalari va tarixiy manbalarda aks etishi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida malikalar obrazining davlat boshqaruvi, ilm-fan, ma‘rifat va madaniyat rivojidadagi o‘rni yoritilib, ularning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini badiiy vositalar orqali tahlil etiladi. Shuningdek, Temuriy malikalar timsolining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

### Abstract

This article analyzes the artistic interpretation and historical foundations of the image of Timurid princesses in Uzbek classical literature. In particular, the representations of Saroymulk Khanum, Gawharshad Begim, Khanzada Begim, Gulbadan Begim and other Timurid women in classical literary works and historical sources are examined. The study highlights their role in state administration, science, education and cultural development, while also exploring the moral and spiritual qualities reflected through literary devices. Furthermore, the significance of the image of Timurid princesses in educating the younger generation is discussed. The findings contribute to a deeper understanding of the distinctive features of female characters in Uzbek classical literature.

**Kalit so‘zlar:** *Temuriy malikalar, o‘zbek mumtoz adabiyoti, badiiy obraz, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, tarixiy manbalar, ma‘naviy meros, ayol obrazi*

**Key words:** *Timurid princesses, Uzbek classical literature, artistic image, Saroymulk Khanum, Gawharshad Begim, Khanzada Begim, Gulbadan Begim, historical sources, spiritual heritage, female character.*

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, madaniy va ma‘naviy taraqqiyotning yuksak bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davr tarixini o‘rganishda turli tarixiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sulola vakillari hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar o‘sha davrning siyosiy hamda ijtimoiy muhitini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tarixiy manbalarda Temuriy malikalar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Ular nafaqat hukmdorlar oilasining a‘zolari, balki davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat va xayriya ishlarida faol ishtirok etgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Saroy hayotida muhim o‘rin egallagan bu ayollar ayrim manbalarda dono maslahatchi, homiy va ma‘rifatparvar insonlar sifatida e‘tirof etilgan.

Temuriy malikalar faoliyatini yoritishda Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning (1389-1450) “Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur” (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro‘ning “Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy”, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) “Matlayi Sa‘dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish ikki dengizning qo‘shilish joyi”), Fasih Xavofiyning (1375-yilda tug‘ilgan) “Mujmal-i Fasihiy”, Zahiriddin Muhammad Boburning (1433-1530)

"Boburnoma", G'iyosiddin Muhammad Xondamirning (1475-1535) "Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar" ("Inson xabarlarida do'stlarning tarjimai holi"), Gulbadanbegimning (1523-1603) "Humoyunnoma", Abulfazl Allomiyning (1551-1602) "Akbarнома", Jahongirshohning (1569-1627) "Jahongirнома" ("Jahongir tuzuklari"), Hakimxon To'raning "Muntahab ut-tavorix", "Tazkirat ul-xavotun" ("Xotinlar tazkirasi") kabi tarixiy asarlari muhim manba vazifasini bajaradi. Mazkur manbalarda malikalar hayoti, ularning jamiyatdagi mavqei hamda davlat va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi haqida turli ma'lumotlar keltirilgan. Shu sababli Temuriy malikalar obrazining tarixiy manbalarda aks etishini o'rganish nafaqat ayollar tarixini tadqiq etish, balki Temuriylar davrining ijtimoiy-madaniy hayotini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Temuriylar davri saroy tarixchisi bo'lgan Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida temuriy malikalar va ularning shaxsiyatiga doir bir qancha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, quyida ularni ko'rib chiqamiz.

Dastlab, asarda Amir Temurning suyuqli ayollaridan bo'lgan Uljoy Turkon og'ο haqida to'xtalsak: *"Ва ҳазрат соҳибқирон ҳеч нарво қилмай, ёронларга кўнгул берди ва Ўлжай Туркон оғоким, Ҳусайнбекнинг синглиси эрди ва ҳазрат соҳибқироннинг ҳарами эрди, алар била чўлға кирдилар ва чўлдин чиқиб Жўйиқийға еттилар ва анда бир бўлак турклар ўлтурур эрдилар. Чун буларни кўруб, бир-бирини чорлаб йўлларини туттилар"*<sup>1</sup>—deya tanishtiradi. Va asarning davomida uning Sohibqiron bilan birgalikda barcha qiyinchiliklarni boshdan kechirganligini va safar chog'ida yonida bo'lib qo'llab-quvvatlaganini ta'kidlaydi. Temuriy malikalarning jasorati va matonati ham yorqin namoyon bo'ladi. Xususan, O'ljay Turkon og'oning Sohibqiron bilan birgalikda xavfli cho'l safariga o'tlanishi temuriy ayollarning faqat saroy hayoti bilan cheklanib qolmaganini ko'rsatadi. Ular murakkab va tahlikali vaziyatlarda ham erkaklar bilan yonma-yon bo'lib, sabr-toqat va fidoyilik namunalari namoyish etganlar. Parchadan ko'rinadiki, temuriy malikalarda jasorat, vafodorlik va qat'iyat kabi yuksak fazilatlar mujassam bo'lgan. Menimcha, ushbu lavha temuriy malikalarning davlat va oila hayotidagi o'rnini naqadar muhim bo'lganini ochib beradi. Shu jihatdan matn nafaqat Sohibqiron faoliyati, balki temuriy ayollarning kuchli va faol shaxs sifatidagi qiyofasini yoritishi bilan ham ahamiyatlidir.

Кириб от била сувга ул шахриёр  
аодат била қилди андин гузор.  
Анинг кейнида **маҳди исматпаноҳ**,  
Таваккал қилиб кирди ул ҳам чу моҳ.  
Навкарлар тақи от солиб кечтилар,  
Саодат майин анда худ ичтилар.  
Бари қилдилар сувдин андоқ гузар,  
Ки бир кишига тегмади бир зарар.  
Янги бошдин берди мужда жаҳон,  
Ким эрур бу шаҳаншоҳ соҳибқирон.  
Чи ғам гар худо бўлса ёройи наку,  
Агар бўлса олам тўла ўту сув.<sup>2</sup>

Bu yerda esa Uljoy Turkon og'oni **"маҳди исматпаноҳ"** – deya ta'riflayabdi.

<sup>1</sup>Йаздий Шарафуддун Али./Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 26 б

<sup>2</sup>Йаздий Шарафуддун Али./Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 56 б

**“Билқис келди, кўр, бу Сулаймон сори яна”**<sup>3</sup>-deyish orqali uning og‘ir vaziyatda Temur yoniga kelganini o‘xshatma qilib bergan. Misrada Bilqisning Sulaymon huzuriga kelishi orqali ayol obrazining donolik, iroda va qat‘iyat bilan bog‘liq jihatlari ifodalangan. Matnda faqatgina tarixiy yoki diniy voqea emas, balki ayol shaxsining faol harakati, qaror qabul qilishi va maqsad sari intilishi ham aks etadi. Bilqisning Sulaymon sari kelishi uning passiv emas, balki aql va tafakkur bilan yo‘l tutgan yetuk shaxs ekanini ko‘rsatadi. Nazarimda, ushbu misra ayol obrazini zaif emas, balki ongli va dono boshqaruvchi sifatida talqin qilishga undaydi. Shu jihatdan u temuriy malikalarga xos bo‘lgan siyosiy ong va mas‘uliyatli qarorlar bilan hamohangdir. Undan tashqari uning saxiy va himmatliligiga ishora sifatida o‘z akasiga ham sirg‘alarini berib yuborib, uni og‘ir vaziyatdan omon saqlab qolgani haqida ham bayt keltirilgandir:

***Рост келмасму бу ҳиммат бирла сарварлиқ иши,  
Мундоқ ар бўлса, жаҳонда ҳиммати бўлмас киши***<sup>4</sup>

Amir Husaynning mag‘lubiyatidan so‘ng uning haramidagi malikalarni o‘z nikohiga olgani haqidagi ma‘lumotlarni ham uchratamiz: *“Ҳазрат Ҳусайнбекнинг хотунларидин Сарой Мулк хонимни, Қазон султонхоннинг қизи эрди ва Улус оғоқим, Баён Сулдузнинг қизи эрди, ва Ислом оғоқим, Хизр Йасурийнинг қизи эрди, ва Тағай Туркон хотун — буларни хосс ҳарамифа йибарди; ва Севинч Қутлуқ оғоқим, Тармаширинхоннинг қизи эрди ва Ҳусайнбекнинг —улуғ хотуни эрди, Баҳром Жалойирға берди, ва Дилшод оғони Зинда Чашмға берди ва Одил Маликқим, Кайқубод Хутталонийнинг қизи эрди, Жақубекка берди”*.<sup>5</sup> Saroy hayotida malikalarning siyosiy va ijtimoiy mavqei qanday bo‘lganligi yaqqol ko‘rinadi. Saroy Mulk xonim, Ulus og‘o, Ba‘yon Suldus qizi, Islom og‘o va To‘g‘ay Turkon kabi ayollar faqatgina oila doirasida emas, balki sulolalararo munosabatlarda ham muhim o‘rin egallagan shaxslar sifatida tilga olinadi. Ularning turli amirlar va hukmdorlarga nikoh orqali berilishi o‘sha davr siyosatida nikohning diplomatik vosita sifatida keng qo‘llanganini ko‘rsatadi. Menimcha, bu holat temuriy malikalarning taqdirini shaxsiy hayotdan ko‘ra ko‘proq davlat manfaatlarini belgilaganini anglatadi. Shu bilan birga, matn ularning oddiy “saroy ayollari” emas, balki siyosiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan tarixiy shaxslar ekanini ham ochib beradi. Keyingi qismlarida esa Jahongir Mirzoning va Xonzoda xonim bilan bo‘lgan nikoh to‘yi tasviri keltirilgandir:

*Дема кечаким, ул шаби қадр эди,  
Бари юлдузу ҳар бири бадр эди.  
Саодатнарвар эрди ул дам спехр  
Юрур эрди маҳ хизматиди ба мехр*<sup>6</sup>

Ushbu misralarda “shabi qadr” — ya‘ni muqaddas va barakali kecha tasviri orqali ilohiy nur, saodat va ezgulik g‘oyasi yuksak badiiy ifoda etilgan. Yulduzlar va oyga qiyoslar orqali osmon manzarasi juda go‘zal va ramziy shaklda tasvirlanadi. Ayniqsa, “saodatnarvar” va “max xizmatida” kabi ifodalar matnga ruhiy poklik va ma‘naviy yuksaklik kayfiyatini beradi. Menimcha, bu parchada nafaqat tabiat manzarasi, balki insonning Allohga yaqinlashish, ezgulikka intilish holati ham aks etgan. Shu jihatdan misralar o‘quvchini ruhiy poklanishga, go‘zallik va ma‘naviyatni his

<sup>3</sup> Йаздий Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 60 б

<sup>4</sup> Йаздий Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 62 б

<sup>5</sup> Йаздий, Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 66 б

<sup>6</sup> Йаздий Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 75 б

qilishga undaydi. Bu to'rtlikdan Xonzoda xonimning Jahongir Mirzo hayotini oy kabi yoritib yuborganini anglash mumkin.

*“Ва ўшул йилда ҳазрат соҳибқирон маҳди’аъло Туман оғоким, Мусабекнинг қизи эрди, шарифат тариқаси билан никоҳида кийурди. Ва ҳазратнинг хотири шарифида кечтиким, бу хотун учун бир ери солгай. Ҳукм эттиким, Самарқанднинг кун ботар сорисида фалак буружининг ададича ўн икки боғ солдилар ва барчани бир қилдилар. Ва бир боғ ичида бир кўшки солди ва бу боғнинг оти “Боғи давоздаҳ бурж” бўлди. Ва ҳазрат ул қишни Занжир Саройда қишлади”<sup>7</sup>.* Temuriylar davridagi saroy hayoti va Temur shaxsining oila hamda davlatga bo‘lgan munosabati yaqqol aks etadi. Xususan, Tuman og‘oga nisbatan hurmat va e‘tibor ko‘rsatilishi, uning sharafiga bog‘lar barpo etilishi temuriy malikalarning saroyda alohida mavqega ega bo‘lganini bildiradi. “Bogi davozdah burj” kabi obidalar orqali nafaqat hukmdorning qudrati, balki uning yaqinlariga bo‘lgan ehtiromi ham ifodalangan. Bu lavha temuriy malikalarning faqat oilaviy hayotda emas, balki madaniy va me‘moriy merosning yaratilishida ham bilvosita ta’sirga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan matn Temuriylar davrida ayollarga bo‘lgan munosabatning murakkab, ammo ehtiromli tomonlarini ochib beradi. Tuman og‘oning sharafiga qurilgan bog‘ bilan birga unga Sohibqironning hurmatini ham anglash mumkin.

*“Аммо ҳазратнинг эгачиси Қутлуқ Туркон оғо кириб ҳазратқа шафқат юзидин деди: “Агир мундоқ бепарволик қилсанг, олам бир-бир бўлуб бузулғай. Худойнинг хостиға ҳеч чора йўқ турур. То олам бор эрмиш, ушбу тариқ эмиш. Ғам емак фойда қилмас. Агар мундоқ бўлсанг раъият ва мамолик паришон бўлуб, худойнинг бандалари бехонумон бўлғай. Нечук бир жамоат бебоклар Мозандарондин чиқиб, бисёр мусулмонларни бехонумон қилиб турурлар? Тариқа ,бу турурким, алар дафъи учун отланиб, андоқ гушмол бергайсенким, ўзга ҳеч кишига мундоқ ҳаво ва ҳавас бўлмағай». Бу калимотким, айни некхоҳлуқди эрди, ҳазрат соҳибқироннинг кўнглига асари Хуросон сори азимат қилди”<sup>8</sup>.* Ushbu ma'lumotdan Amir Temurning harbiy urishlarida uning yonidagi ayollarning ham jasorati va ishonchi qanchalik muhim rol o‘ynaganini anglash mumkin. Temuriy malikalardan biri — Qutlug‘ Turkon og‘o obrazida donolik, maslahatchilik va davlat ishlariga ta’sir ko‘rsata olish kuchi juda yorqin aks etgan. U Sohibqiron Amir Temurga murojaat qilib, faqat shafqat yoki beparvolik bilan ish yuritish emas, balki adolat va qat’iyat bilan harakat qilish zarurligini uqtiradi. Malikaning so‘zlarida xalq taqdiri, mamlakat osoyishtaligi va fitnalarni bartaraf etish g‘oyasi ustun turadi. Temuriy ayollarning faqat saroy ichidagi shaxs emas, balki siyosiy ongga ega, davlat ishlarida fikri inobatga olinadigan dono maslahatchilar bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning Temur qaroriga bevosita ta’sir qilgani uning tarixiy jarayonlarda faol rol o‘ynaganini isbotlaydi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning kuchli, fahm-farosatli va davlat manfaatini ustun qo‘yuvchi obrazini ochib beradi.

*“Ҳазрат соҳибқироннинг ҳарам муҳтарами Дилшод оғо вафот булди. Ва неча кундин сўнг ул ҳазратнинг эгачиси Қутлуғ Туркон оғоким, анвоғи хайр андин воқиъ бўлуб эрди ва мадрасалар ва хонақоҳлар йасаб, мискину фақирлар анинг хайротидин кеча-кундуз файз топар эрдилар, ул тақи жаннати аъло сори борди ва анинг сабрини шаҳзода Қусам ибн ал-Аббоснинг мазорига яқин қаздилар ва қўйдилар. Ва ҳазрат Соҳибқиронга бу икки ҳодисадин муборак*

<sup>7</sup> Йаздий Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 78 б

<sup>8</sup> Йаздий Шарафуддун Али./ Зафарнома // Т.: Шарк, 1997. — 84 б

*кўнгли бисёр малул бўлди ва таъзият тутуб, анча ош ва садақа бердиким, хиёбини Тангридин ўзга билмас эрди*"<sup>9</sup> Bu yerda Qutlug' Turkon og'oning vafoti va uning tiriklik chog'ida nechog'lik saxiy ayol bo'lganini berib o'tilganligiga guvoh bo'lamiz. Bunda temuriy malikalarning insonparvarligi, saxovatpeshaligi va jamiyat hayotidagi ma'naviy o'rni juda ta'sirli tarzda yoritilgan. Xususan, Dilshod va Qutlug' Turkon og'o kabi malikalarning vafoti nafaqat saroy ahli, balki butun muhit uchun og'ir yo'qotish sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, Qutlug' Turkon og'oning madrasalar, xonaqohlar barpo etib, miskin va faqirlarga doimiy yordam ko'rsatgani uning faqat saroy ayoli emas, balki yuksak ma'naviyat egasi ekanini ko'rsatadi. Menimcha, bu lavha temuriy malikalarning jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va xayriya ishlarida faol ishtirok etganini yaqqol isbotlaydi. Shuningdek, ularning vafoti Amir Temur qalbiga ham chuqur ta'sir qilgani ularning davlat va saroy hayotidagi o'rni naqadar muhim bo'lganini bildiradi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning mehribon, saxovatli va jamiyat uchun foydali shaxslar sifatidagi obrazini yanada kuchaytiradi.

*"Маҳди аъло Сарой Мулк хоним арзадошти соҳибқиронға йибарди, мазмуни улким: Фарзандлар барча саломат ва саодат турурлар. Ва ёрлиғиким, ул ҳазраттин келиб эрди, ўнуб кўзларимизга суртуб, бошларимизга цўйдук. Ва ўшул замон отланиб, Қаршиға етконда яна муборак ёрлигингиз келдиким, "Ўзгрукни кўйуб, бот келинлар!" Аммо қудратулайн шаҳзода Шохрухнунг муборак кўзига андак марази пайдо бўлди. Ул жиҳатдин тез юролмагук. Эмди би-ҳамдил-Лоҳ ул заҳмат бикулли бўлди ва таъжил билан келурбиз, деб арзадошт йибарилди"*<sup>10</sup>. Xat mazmunidan anglashiladiki, Saroymulkxonim nafaqat haramdagi malikalarning boshqaruvida balki mamlakat boshqaruvida ham, Amir Temurning muhim siyosiy ishlarida ham eng yaqini, maslahatchisi bo'lganini anglash mumkin. Saroy Mulk xonimning Sohibqironga yozgan murojaati orqali temuriy malikalarning saroy hayotidagi muhim o'rni va siyosiy xabarchilikdagi faolligi yaqqol ko'rinadi. U oila a'zolarining sog'-salomatligi haqida xabar berib, hukmdorning farmonlarini hurmat bilan qabul qilganini bildiradi. Bu esa temuriy malikalarning nafaqat oila ichidagi, balki davlat ishlariga yaqin turuvchi, tartib-intizom va muloqotda muhim rol o'ynagan shaxslar bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu lavha Saroy Mulk xonim timsolida aql-zakovat, sadoqat va mas'uliyatni mujassam etgan temuriy ayol obrazini ochib beradi. Shuningdek, unda saroydagi hayotning tartibli tizimi va hukmdor farmonlariga bo'lgan chuqur hurmat ham aks etgan. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning davlat boshqaruvi bilan bevosita bog'liq muhim figuralar ekanini tasdiqlaydi.

*"Агар соҳибқирон анинг фикрини қилмаса, ул йаағилиц қилур.*

*Моликим, ҳазратқа тааллуқ эрди, тасарруф қилиб, барчани бекларига улаштурди. Соҳибқирон бу хабарларни билиб. Эрон сори йана мутаважжих бўлуб, йароғиға машғул бўлди"*<sup>11</sup> Bu yerda Mironshohning harami Xonzodaning Amir Temur yoniga eri ustidan qilgan shikoyati berilgan bo'lib, malikaning naqadar aqlli va jasurligiga amin bo'lamiz. Undan tashqari asarda doim Sohibqironning safar oldidan buyruqlarida Saroymulkxonim va Tuman og'olarining valiahd shahzodalar bilan birgalikda xavfsiz yerga ko'chirilishi haqidagi buyruqlarini ko'rishimiz mumkin. Bundan anglashiladiki, ular bo'lg'usi shohlarning ham tarbiyachi, enagalari bo'lishgan va mamlakat taqdiri aynan ularning tarbiyalariga ham bog'liq bo'lgan.

<sup>9</sup> Йаздий Шарафуддун Али./Зафарнома // Т.: Шарқ, 1997. — 88 б

<sup>10</sup> Йаздий Шарафуддун Али./Зафарнома // Т.: Шарқ, 1997. — 92 б

<sup>11</sup> Йаздий Шарафуддун Али./Зафарнома // Т.: Шарқ, 1997. — 26 б

Markaziy Osiyoning XIV-XV asrida yashab ijod etgan mohir tarixnavis Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub "Zafarnoma" da ham temuriy malikalarning hayotiga oid kerakli ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

Amir Temurning suyuqli xotini Uljoy Turkon og' o haqida ham huddi Sharafiddin Al-Yazdiyning "Zafarnoma" sig'a o'xshagan ma'lumotlarni uchratamiz. Asarda Temurning suyuqli qizi ta'rifi berilgan bo'lib: *"Amir Sohibqironning poklik pardasida o'tirgan qizi bor edi. Suvratda tengi yo'q, siyratda unga o'xshashi va monandi yo'q edi. Unga poklik enagasi iffat ko'krigidan sut bergan, zamona onasi pokizalik va ozodalikda uningdeginu tug'magandi. Falak ming ko'z bilan jamoliga nigoron, quyosh muhabbat bilan uning boshida doimo larzon edi"*.<sup>12</sup> Uning vafoti buyuk Sohibqironni qattiq larzaga solib, farzandining ayrilig'iga bardosh bera olmaganligi haqidagi ta'sirli o'rinlarni ko'rishimiz mumkin. Bu voqaeadan so'ng, Qutlug' Turkon og'oning nasihati keltirilgan bo'lib, Temur uning nasihat-u daldalari bilan o'z og'rig'ini unutgani haqida beriladi. Asarda Shomiy uni *"Ulug' xotun va katta bonu"* – deya ta'riflaydi. "Ulug' xotun va katta bonu" iborasi temuriylar davridagi ayollarga berilgan yuksak hurmat va e'tiborni ifodalaydi. Bu nomlar oddiy unvon emas, balki saroy va jamiyat hayotida mavqei baland, aql-zakovatli, tajribali hamda hurmatga sazovor malikalarga nisbatan qo'llangan. Bu kabi atamalar temuriy ayollarning faqat oilaviy doirada emas, balki davlat va madaniy hayotda ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ibora orqali o'sha davrda ayol shaxsiga bo'lgan ehtirom va ularning jamiyatdagi ta'siri yaqqol seziladi. Shu jihatdan "ulug' xotun va katta bonu" tushunchasi temuriy malikalarning yuksak maqomini ifodalovchi ramziy nom sifatida ahamiyatlidir.

Uning vafoti bilan bog'liq ma'lumotlarda esa uni *"Hayrli ishlari, in'om-u ehsoni bilan zamonasi xotinlaridan uzgan, o'z xolis mollaridan madrasalar, xonaqohlar qurdirgan, har nav ezguliklari bilan jahon xalqiga foyda yetkazgan ulug' xotun-Amir Temurning opasidir"*<sup>13</sup> -deya uning saxiy va zakiy ayol bo'lganligiga ishora ham berib o'tgandir. Temuriylar davrida yashagan ulug' xotun obrazida yuksak insoniy fazilatlar, saxovat va ma'naviy yetuklik juda ta'sirli tarzda ifodalangan. U o'zining halol mehnati va shaxsiy mol-mulki evaziga madrasalar va xonaqohlar qurdirib, ilm va ma'rifat tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Bu obraz temuriy malikalarning faqat saroy bezagi emas, balki jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan faol shaxslar bo'lganini isbotlaydi. Ayniqsa, uning xayr-ehsonlari orqali xalq farovonligi va ma'naviy hayotiga xizmat qilgani ayollarning o'sha davrda naqadar hurmatli mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu jihatdan ushbu matn temuriy ayollarni saxovatli, bilimparvar va jamiyatga foyda keltiruvchi ulug' shaxslar sifatida yoritadi.

Ulug' malika Saroymulxonimni muallif *"Bilqisi sug'ro va bonuyi kubro"*<sup>14</sup> deya izzat-ikrom ila iltifot etadi. "Bilqisi sug'ro va bonuyi kubro" iborasi ayollarga berilgan ramziy va hurmatli unvonlarni ifodalaydi. Bu yerda "sug'ro" va "kubro" so'zlari orqali ayollarning martabasi, donoligi va jamiyatdagi o'rni darajalab ko'rsatiladi. Bu kabi ifodalar temuriylar davrida ayol shaxsiga bo'lgan e'tibor juda yuqori bo'lganini, ularning nafaqat oila, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham muhim o'rin tutganini bildiradi. Ayniqsa, "bonuyi kubro" kabi atamalar yuksak maqom, hurmat va ehtiromni anglatib, ayol obrazining ulug'lanishini ko'rsatadi. Shu jihatdan bu ibora temuriy malikalarning jamiyatdagi nufuzini va ularning ma'naviy yetukligini ifodalovchi muhim ramziy tushunchalardan biridir

<sup>12</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 117 б

<sup>13</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 123 б

<sup>14</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 128 б

Undan tashqari uning mamlakat taqdirida muhim rol o'ynashini ta'kidlab, Tuman og'ο bilan unga *“Ulug'lik shabistonining chodiri va poklik saropardasi bo'lmish bonular”*<sup>15</sup> – deya e'tiroflaydi. Ulug'lik shabistonining chodiri va poklik saropardasi bo'lmish bonular” iborasida temuriy malikalarga xos yuksak ma'naviy poklik, ulug'lik va ehtirom ramziy tarzda ifodalangan. Bu tasvir orqali ayollar faqat saroy hayotining ishtirokchisi emas, balki poklik, tarbiya va ezgulik timsoli sifatida ko'rsatiladi. Menimcha, temuriylar davrida malikalarga nisbatan nafaqat siyosiy, balki ma'naviy hurmat ham juda kuchli bo'lganini anglatadi. Ayniqsa, “ulug'lik shabistoni” va “poklik saropardasi” kabi badiiy tasvirlar ularning jamiyatdagi nufuzini va axloqiy yetukligini yanada kuchliroq ochib beradi. Shu jihatdan bu ibora temuriy malikalarning ulug', pok va ma'naviy jihatdan yuksak shaxslar sifatidagi obrazini ifodalaydi.

To'kal xonim ta'rifiga kelganda uni *“ Bilqis iqtidorli malika, humo viqorli bonu”*<sup>16</sup> deya ta'riflaydi. “Bilqis iqtidorli malika, humo viqorli bonu” iborasida ayol obrazining ikki asosiy jihati — aql-zakovat va viqorli qadr-qimmat — badiiy tarzda ifodalangan. Bilqis timsoli orqali malikaning dono, idrokli va boshqaruvga qodir shaxs ekani ko'rsatilsa, “humo viqorli bonu” tashbehi uning yuksak hurmatga loyiq, salobatli va obro'li ekanini anglatadi. Temuriy ayollarning faqat go'zallik bilan emas, balki aql, tafakkur va siyosiy-madaniy mavqe bilan ham baholanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Bilqis obrazining qo'llanishi ayolning dono hukmdor yoki yetuk boshqaruvchi sifatida talqin qilinishiga ishora qiladi. Shu jihatdan ushbu ibora temuriy malikalarning iqtidorli, viqorli va jamiyatda yuqori nufuzga ega shaxslar sifatidagi obrazini kuchli ifodalaydi.

Amirzoda Muhammad Sultonning vafoti tasvirida barcha malika-yu haram ahlining quyidagicha tasviri beriladi: *“Oy chehrali xotinlar tun rangli qaro kiyimlar kiydilar, hurshid misol Zuhra peshonali (go'zallar) tutilishi davridagi quyoshdek tirahol va parishon bo'ldilar”*<sup>17</sup> -deya ta'riflaydi. shbu parchada ayollarning holati juda kuchli badiiy tasvirlar orqali ifodalangan. “Oy chehrali xotinlar” va “hurshid misol Zuhra peshonali” kabi tashbehlar orqali ularning go'zalligi va nazokati yuksak darajada tasvirlanadi, biroq shu go'zallik ortida qayg'u va iztirob ham seziladi. Qora liboslar, tutilgan quyosh va parishon holat tasviri esa fojeaviy kayfiyatni kuchaytiradi. Ushbu parchada nafaqat tashqi ko'rinish, balki ayollarning ichki ruhiy kechinmalari ham chuqur ifodalangan. Ayniqsa, go'zallik va qayg'u bir-biriga zid holatda berilishi inson taqdirining murakkabligini ko'rsatadi. Shu jihatdan matn badiiy jihatdan boy bo'lib, o'quvchida ham estetik, ham hissiy ta'sir uyg'otadi.

Amir Temur tarixiga oid yana yana bir yozma manbalardan biri bo'lgan Muiniddin Natanzining “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asariga keladigan bo'lsak, unda ham temuriylar davri haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarga duch kelamiz.

*“Султони гозий амир Хусайннинг синглиси Улжой Туркон оога уйланди ва шу хотини хаётлик пайтида у туфайли урталарида (Темур ва Хусайн орасида) хамжихатлик ва иттифок баркарор эди”*<sup>18</sup> Mazmunidan anglashiladiki, Uljoy Turkon og'ο vafotiga qadar Temur va Husayn munosabatlariga barqaror bo'lganligini, Uljoy Turkon og'ο bu munosabatlarning poydevori bo'lganini anglash mumkin. Ushbu parchada Uljoy Turkon og'ο obrazida temuriylar davridagi ayollarning siyosiy muvozanat va ittifoqlarda tutgan o'rne yaqqol

<sup>15</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 135 б

<sup>16</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 140 б

<sup>17</sup> Низомиддин Шомий //Зафарнома// Тошкент.: Узбекистон 1996 – 156 б

<sup>18</sup> Натанзий, Муиниддин Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси)

- Т.: O'zbekiston, 2011.-40 б

ko‘rinadi. Amir Temurning Amir Husayn singlisiga uylanishi ikki hukmdor o‘rtasidagi munosabatlarning yaqinlashishiga, vaqtincha bo‘lsa ham hamjihatlik va ittifoqning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bu vaziyat temuriy davrda nikoh faqat oilaviy emas, balki siyosiy strategiya vositasi ham bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Uljoy Turkon og‘o obrazida ayol shaxsining davlatlararo munosabatlarga bevosita ta‘sir ko‘rsata oladigan muhim figura sifatida namoyon bo‘lishi e‘tiborga loyiqdir. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning tinchlik va ittifoqni mustahkamlashdagi o‘rni naqadar muhim bo‘lganini ochib beradi.

Shuningdek, asarda Sohibqironning opasi Qutlug‘Turkon og‘o unga dushmanlardan yashirinishda yordam bergani va qo‘llab-quvvatlagani arzirli ma‘lumotlar berilgan. Yana qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, uning Aqo Begi ismli qizi bo‘lganini va uni Ali Yassavuriyga nomzod qilib bermoqchi bo‘lganida, u kengash yonida o‘zining mardona javoblari bilan bu fikrdan qayttirgan o‘rinlarini ko‘ramiz va bu uning naqadar o‘z so‘zi va o‘z zakovati borligiga bir nishonadir.

Hirotlik mashhur tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning “Buyuklik xislati” nomi ostida chiqqan “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” kitobida ham temuriy malikalarning hayotiy kechimlari haqida ham hikoya qiladi.

*“Султон Ахмад мирзо жами олти нафар аёлни ўз никоҳига киритди. Ва унга Худои субхона ва таоло етти нафар қиз ато қилди. Ул тахту тожни безовчининг хотинлари номи куйидаги тарзда ёзиб кўрсатилмоқца: Биринчиси Меҳр Нигорхоним бента Юнусхон; иккинчиси эса насаби Тархон амирларига уланувчи Тархонбегим; учинчиси Тархон- бегимнинг кўкалтоши Қабақбегим эди. Тўртинчиси насаби Термиз хонзодаларига боғланувчи Хонзодабегим. Бешинчиси Латифбегим бинта Амир Ахмад Ҳожжи. Олинчиси Султон Арғуннинг оғо-инисининг қизи бўлмиш Ҳабиба Султонбегим. Айтмоқ лозимки, Султон Ахмад Мирзонинг ўғил фарзандлари икки нафар бўлиб, аммо уларнинг ҳар иккаласи ҳам кичикликда оламдан ўтишган. Ул олий шаънли подшоҳнинг кизлари жумласидан тўрт нафари Қабақбегимдан вужуд оламига келган эдилар. Бир нафари эса Ҳабиба Султонбегимдан эди. Қабақбегим қизларидан энг тўнғичи Рооиа Султонбегим бўлиб, уни Қароқўзбегим ҳам дер эдилар. Қароқўзбегим Султон Ахмад Мирзоҳаётлигида Суптон Маҳмудхоннинг никоҳига кирди. Султон Маҳмудхон шахидлик топгач, ул аъфифага шайбоний Жонибек Султон уйланди. Иккинчиси Солиҳа Суптонбегим бўлиб, уни Оқбегим ҳам дейишар эди. Оқбегим отаси вафот этгач, ўз амакасининг ўғли Султои Масъуд Мирзонинг никоҳига кирди. Учинчиси Ойиша Султонбегим бўлиб, бир неча вақт Жамшид мартабали подшоҳ Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳарамида турди. Тўртинчиси Суптонбегим бўлиб, Султон Али Мирзо Самарқанд салтанатида чоғи уни ўз никоҳига киритди. Бешинчиси Ҳабиба Султонбегимдан туғилган қизи бўлиб, исми Маъсума Султонбегим эди. У халифатпанох хазрат Заҳириддин Муҳаммад Бобур подшоҳнинг ҳарами сари йўл топиб, бир неча вақтдан сўнг битта қиз туғди. Ушанда онаси вафот этиб, қизга онасининг*

*исми қўйилди*”<sup>19</sup> Bu o‘rinlarda Sulton Ahmad mirzodan bo‘lgan temuriy malikalarning taqdiri haqida batafsil bilish mumkin.

*“Эсан Давлатбегимнинг маъқулловига кўра Ҳасан Яъқубни ихтиёрсиз қилиб, кандаж йўсинда мумкин бўлса, ўша тарзда унинг касофатти ўйини йўққа чиқаришга қарор қилдилар*”<sup>20</sup>. O‘sha vaqtlarda davlat ishlari nafaqat podshoh balki uning yonidagi ayollarning ham roziligiga tayanilganini Esandavlatbegim misolida ko‘rish mumkin. Esandavlatbegimning siyosiy jarayonlarga aralashuvi va o‘z davridagi murakkab voqealarga ta‘siri aks etgan. Matnda u Hasan Ya‘qubga qarshi chora ko‘rish masalasida qaror qabul qilish jarayonida tilga olinadi, bu esa temuriylar davrida ayollarning ayrim hollarda siyosiy maslahat va yo‘naltiruvchi rolga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Natijada, lavha temuriy malikalarning faqat saroy ichidagi passiv shaxs emas, balki ba‘zan keskin siyosiy qarorlar ortida turgan ta‘sirli shaxslar bo‘lganini anglatadi. Shu jihatdan matn ularning tarixiy jarayonlarda faol ishtirokini va davlat manfaatlarini bilan bog‘liq masalalarda muhim o‘rin tutganini yoritadi.

*“Айни шу воқеалар асносида Султон Али Мирзонинг онаси Зухрабеги Оғо акли камлиги ва қайта эр қилиш орзусига майлу ритиёқи кўплиги сабаб яширинча равишда Шайбонийхон олдига чопар юборди ва муҳаббат тили билан ушбу хабарни етказди: Агар хон ҳазратлари бу заифани ўз никоҳига киритиш гапини қабул қилса, мен хизмат камарини жон белига боғлаб, Самарканд парвозасини очаман ва ўғлим Мирзо Султон Алини ул хазрат хузурига юбораман. Аммо шарти шуки, қачон хон бошқа шаҳарларни ҳам тасарруф доирасига киритсалар, Самаркандни Султон Али Мирзога бергайлар*”<sup>21</sup>

*“Шу аснода ифбат ва ҳашамат кутисининг гавҳари Султон Бадиуззамон Мирзонинг кизи Чучукбегим доруссалтана Ҳиротда офатларга тўла жаҳондан охират сафари кўчини йиғиштирди. Амир Зуннун ва амир Шайх Али улуг султонлар қоидаси бўйича ул Махд улёни ювиб ва кафанлаш иттига бош бўлиб, пок жасадини шарифа Бадиа мадрасасида дафн қилдилар аа баракаши руҳини ёд этиш учун фақир мискинларга таом бериш, Худои субҳона ва таоло каломини хагм қилишга машғул бўлдилар*”<sup>22</sup>.

Yuqoridagi parchalarda temuriylar davrining murakkab siyosiy muhitida ayollar obrazlari turli qirralarda namoyon bo‘ladi. Zuxrabegim og‘o timsolida saroy ichidagi siyosiy ta‘sir va diplomatik munosabatlarga aralashuv ko‘rinadi, chunki u Shayboniyxon bilan bog‘liq masalada o‘z manfaatini ko‘zlab muomala qiladi va hatto shartlar qo‘yishga urinadi. Bu esa o‘sha davrda ayrim malikalar siyosiy jarayonlarga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatganini bildiradi. Ushbu holat

<sup>19</sup>Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-16 б.

<sup>20</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-38 б

<sup>21</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-68 б

<sup>22</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-79 б

temuriy ayollarning faqat ma'naviy yoki oilaviy emas, balki siyosiy manfaatlar bilan ham bog'liq faol shaxslar bo'lganini ko'rsatadi. Ikkinchi qismda esa Chuchukbegim obrazida inson taqdirining foniyliigi, saroy hayotining o'tkinchiligi va insonning oxirat sari yo'l olishi g'oyasi ifodalangan. Shu jihatdan matn bir tomondan siyosiy manfaatlar, ikkinchi tomondan esa hayot va o'lim falsafasini birgalikda yoritib beradi.

*“Жаннатмакон хоқони мансурнинг синглисининг кизи ва Музаффар Хусайн Кўрагоннинг никоҳида бўлган маҳд улё Хонзода хоним бинта Аҳмадхон Шайбонийхоннинг назарига ёқиб қолиб, хон бу гўзал аёлнинг шаръий равишда висолига етмок чорасини ахтара бошлади. Шунда хоним «Музаффар Хусайн Мирзо бундан икки йил олдин мени талоқ қилган эди» деган итдаони аён килди. Диёнат ахдидан бир тўдаси хонимнинг муддаоси асосида гувоҳлик беришди ва шу тариқа у ойдин шаруат қоидаси бўйича хон аёллари каторидан жой олди. Музаффар Хусайн Мирзонинг кизи бўлмиш ва мазкур улё хонимдан туғилган Меҳрангиз бегимни Убайдуллоҳ Султон ўз никоҳига киритди”*<sup>23</sup>. Parchada Xonzoda xonim obrazida temuriy va shayboniylar davriga xos saroy hayotining murakkab siyosiy va shaxsiy munosabatlari aks etadi. Matnda u avvalgi nikohdan ajrashganini dalillar bilan isbotlab, shariat qoidalari asosida o'z maqomini o'zgartirishi tasvirlanadi. Bu holat o'sha davrda ayollarning taqdiri ko'pincha siyosiy va sulolaviy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Menimcha, Xonzoda xonim obrazi orqali ayolning faqat saroy go'zali emas, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan o'z mavqeini himoya qila oladigan shaxs sifatida ham namoyon bo'lishi ifodalangan. Shu bilan birga, uning turli hukmdorlar bilan bog'liq hayoti temuriylar davridagi siyosiy nikohlarning naqadar murakkab tizimga ega bo'lganini ochib beradi.

*“Ифбат чодирининг юзи ёпиқларидан Кобилий бегимни Қанбар Мирзо Кўкалтош ўз никоҳига киритди”*<sup>24</sup>. Kobiliy begim obrazi orqali saroy muhitidagi ayollarning maqomi va nikoh munosabatlarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ifodalangan. “Iffat chodiri” kabi badiiy ifoda uning poklik, hayo va ehtrom timsoli sifatida tasvirlanayotganini ko'rsatadi. Matnda uning Qanbar Mirzo K'ukaltosh bilan nikohga kirishi oddiy oilaviy hodisa emas, balki o'sha davr saroy tizimidagi muhim ijtimoiy aloqalardan biri sifatida talqin qilinadi. bu lavha temuriylar davrida malikalarning nafaqat shaxsiy hayot, balki siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida ham muhim o'rin tutganini anglatadi. Shu jihatdan matn ayol obrazini poklik, hurmat va sulolaviy bog'liqlik ramzi sifatida yoritadi.

*“Маҳдү улё Хадича беги Оғо ул мақтов сийратли ўғилни йўқотиши азоб-уқубатидан сабр-тоқат ёкасини йиртиб, зор-зор йиғиси товушини зангори осмонга етказди”*<sup>25</sup>.

Mahd ulyo Xadicha begim og'oning farzand yo'qotish kabi og'ir musibatga duch kelgani va uning chuqur iztirobi juda ta'sirli tarzda tasvirlangan. Matnda uning sabr-toqatdan ayrilgandek

<sup>23</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011-94 б

<sup>24</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-106 б

<sup>25</sup> Хондамир, Гиёсиддин Бин Хумомиддин //Буюклик хислати: Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблар// Бобур жамоат фонди. - Т.: «Sharq», 2011.-113 б

holati, zor yig‘isi va qayg‘usi orqali insonning eng og‘ir ruhiy kechinmalari ifodalanadi. Menimcha, bu lavha temuriy malikalarning faqat kuchli va siyosiy shaxslar emas, balki oddiy insoniy tuyg‘ular — onalik mehri, og‘riq va iztirobni ham chuqur his qilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning faryodi “zangori osmon”ga yetgani haqidagi tasvir qayg‘uning naqadar ulkan va chuqur ekanini badiiy jihatdan kuchaytiradi. Shu jihatdan matn ayol obrazining insoniy va hissiy tomonini ochib beradi.

Yirik tilshunos olim sifatida ham nom qoldirgan mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy ham bu buyuk sulola tarixini chetlab o‘ta olmagandir. Jumladan, uning qalamiga mansub bo‘lgan “Matlai Sa‘dayn va Majmai Bahrayn” nomli asarida ham qimmatli ma‘lumotlarga duch kelamiz.

*“Хоника бегимни баъзи хазиналар билан бирга Балх тарафга, мирзо Пир Муҳаммад ибн мирзо Жаҳонгир хузурига юбориш”*<sup>26</sup> Mazmunidan anglashiladiki, o‘sha vaqtlarda malikalarni haramga hadya etish bu ikki o‘rtaning munosabatlariga yanada mustahkam davomiylikni ta‘minlash bilan teng bo‘lgandir. Xonika begimning Balx tomonga, Mirzo Pir Muhammad huzuriga yuborilishi orqali temuriylar davridagi siyosiy aloqalar va sulolaviy munosabatlar tizimi aks etadi. Matnda uning ayrim xazinalar bilan birga jo‘natilishi bu hodisaning oddiy safar emas, balki diplomatik va siyosiy maqsadga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Bu holat temuriy malikalarning taqdiri ko‘pincha davlat manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lganini, ularning harakati esa sulolalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim vosita bo‘lganini anglatadi. Shu jihatdan Xonika begim obrazi orqali ayollarning siyosiy jarayonlardagi bilvosita, ammo sezilarli roli yaqqol namoyon bo‘ladi.

*“Халил вафоти ноғорасининг титроқли садоси зарбасидан қулоқлар ҳануз халос бўлмай туриб, унинг онаси маҳди улё Хонзоданинг (бу дунёдан) кўчганлиги товуши димоғ қасрининг баланд ерларига ва хаёл ҳужрасининг юқори тоқчаларига чирмашди. Мисра: Хали бир дард тузалмай туриб, иккинчиси етишди. У муаззам бону Машҳади муқаддаси Ризавийда вафот топди ва бузrugворнинг мозори ёнига дафн қилинди”*<sup>27</sup>. Bu yerda nafaqat shahzodaning o‘limi xabari balki uning onasining iztiroblari ham yashiringan bo‘lib, u farzand dog‘ida, bu dardni ko‘tara olmay vafot etgani haqida ta‘sirli o‘rinlarni ko‘ramiz. Xonzoda begim obrazida inson taqdirining o‘tkinchiligi va saroy hayotidagi fojeaviy voqealar chuqur ifodalangan. Avval Xalilning vafoti haqidagi xabar yetib kelishi, oradan ko‘p o‘tmay uning onasining ham vafot etishi tasviri musibatning ketma-ket kelishini ko‘rsatadi. Temuriylar saroyida hatto eng qudratli va nufuzli shaxslar ham taqdir sinovlaridan mustasno emasligini anglatadi. Ayniqsa, matnda “bir dard tuzalмай turib, ikkinchisi yetishi” mazmunidagi fikr inson hayotining murakkab va beqaror ekanini yanada kuchliroq ochib beradi. Shu jihatdan ushbu parcha nafaqat tarixiy voqeani, balki hayot va o‘lim haqidagi chuqur falsafiy mazmunni ham ifodalaydi.

*“Мирзо Улуғбекнинг муҳтарам ҳарамии садаф янглиғ бир дурдонага ҳомиладор бўлганлиги хабари шухратли қулоқларга эшитилди, хонзода Бегико йўқлик қоронғулигидан борлиқ рўшнолигига қадам қўйди”*<sup>28</sup> Bundan to‘y tavsifi bilan birga malika Begikoning haram ahlidan bo‘lish tasviri va uning go‘zalligiga bir ishora ekanligini anglash mumkin. Ayniqsa, “yo‘qlik qorong‘iligidan borliq roshnoligiga qadam qo‘ydi”

<sup>26</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 53 б

<sup>27</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 65 б

<sup>28</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 75 б

iborasi hayotning boshlanishi va umidning paydo bo'lishini juda chuqur ma'naviy mazmunda ifodalaydi. Shu jihatdan matn quvonch, umid va hayotning davomiyligi g'oyasini badiiy tarzda ochib beradi.

*“Шоҳрух жомеъ масжидига борган ва унга суиқасд қилинган кунни унинг хотини махди аъло (Гавҳаршод оғо) ўша кезларда кўп ёмғир ёғиб деворлар нам тортиб қолганлиги ва жомеъ масжидига бориш учун Шоҳрух шаҳар ичидаги сердевор жойлар дан ўтиб бориши лозимлиги туфайли, бормасликни маслаҳат берган, Шоҳрух бунга қулоқ солмаган”*<sup>29</sup>.Parchada Гавҳаршод оғо obrazida temuriylar saroyidagi dono va ehtiyotkor malika qiyofasi namoyon bo'ladi. U Shohruxga xavfli vaziyatda jome masjidiga bormaslikni maslahat berib, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilish fazilatini ko'rsatadi. Biroq hukmdorning bu maslahatga quloq solmasligi voqealarning fojeali yakuniga olib kelganini anglatadi. Natijada,temuriy malikalarning faqat saroy bezagi emas, balki siyosiy va xavfsizlik masalalarida ham fikri muhim bo'lgan dono maslahatchilar ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, Gavharshod begim obrazida aql-zakovat, tajriba va ehtiyotkorlik juda yorqin ifodalangan. Shu jihatdan matn temuriy ayollarning davlat hayotidagi ta'sirli va mas'uliyatli o'rnini ochib beradi.

*“Хазрат хоқони саид Ироқ ва Озарбайжон томон юриш қилган вақтда махди улё Гавҳаршод оғо доруссалтана Ҳиротда туриб қолган ва шаҳзода Муҳаммад Жўтий баҳодир волидайи бузургворига мулозимликда эди”*<sup>30</sup>. Podshohning o'zga yerlarga yurishi davrida , mamlakat va xalq taqdiri Gavharshodbegim qo'lida bo'lgani, uning yonidagi shahzodalar ko'ngliga va roziligiga qarab ish yuritganlarini sezish mumkin. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, muallif uni *“Zamona bilqisi, shuhratli volida”* deb ham e'zozlaydi. Zamona Bilqisi, shuhratli volida” iborasi orqali ayol shaxsining o'z davrida nihoyatda dono, obro'li va e'tiborli ekanligi ifodalanadi. “Bilqis” timsoli qadimdan aql-zakovat, siyosiy idrok va yetuk boshqaruv qobiliyatiga ega malika obrazini anglatadi, “volida” esa onalik maqomi va hurmatini bildiradi. Bu kabi ta'riflar temuriy malikalarning nafaqat oilaviy doirada, balki jamiyat va saroy hayotida ham katta nufuzga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, “zamona Bilqisi” deyilishi ularning o'z davrining eng dono va yetuk ayollari sifatida qadrlanganini anglatadi. Shu jihatdan bu ibora temuriy ayollarning aql-zakovat, hurmat va ma'naviy yetuklik timsoli ekanini ifodalaydi.

*“Изатли ва ифбатли қизлар орасида салтанат сулоласининг кўзу чироғи ҳам хонлик хонадонининг ёруғ нури бўлган подшоҳ Хизрхожанинг набираси, Шамъи Ж аҳоннинг қизи”*<sup>31</sup> deya Mehr Nigor og'oning ta'rifini beradi.Podshoh Xizrxoja nabirasi va Shamsi Jahonning qizi bo'lgan malika yuksak hurmat bilan tasvirlanadi. Unda “izzatli va iffatli qizlar”, “ko'zu chiroq” va “yorug' nur” kabi badiiy ifodalar orqali uning nafaqat sulola uchun, balki butun saroy hayoti uchun muhim shaxs ekanligi ta'kidlanadi. Bu davrida malikalar faqat nasl davomchisi emas, balki sulola sha'ni va obro'sining timsoli sifatida qaralganini ko'rsatadi. Ayniqsa, “yorug' nur” kabi tashbehtar uning axloqiy pokligi, tarbiyasi va hurmatga loyiq shaxs ekanini yanada kuchliroq ifodalaydi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning ulug' maqomi va ularning jamiyatdagi ma'naviy ahamiyatini ochib beradi.

<sup>29</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 87 б

<sup>30</sup>Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 98 б

<sup>31</sup>Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 104 б

*“Бундан илгарироқ махди улё Гавҳаршод оғо тангри саломларини йўллагур ҳазрат Имомнинг (қабри) куббаси ёнига ғоятда ҳашаматли ва зийнатли бир масжиди жоме қуришига бошлаган эди, шу кунларда қурилиб битай деб қолди. Бу латиф ишланган иморат ҳазрат хоқони саиднинг назарига ғоят маъқул кўринди. Онҳазрат Маишҳаднинг шарқ томонида бир чаҳорбоғ ва бир саройнинг тарҳини белгилаб, ҳар маҳал Маишҳад зиёратига келса, ҳумоюн мавкаб шу боғ ва саройга қўнадиган қилиб мукаммаллаштирди”<sup>32</sup>.* Bundan anglashiladiki, Gavharshodbegim nafaqat mamlakat boshqaruvida balki binokorlik borasida ham mahorat va zakovat egasi bo‘lgan. Gavharshodbegim obrazida temuriylar davrida ayollarning nafaqat saroy hayotida, balki me‘morchilik va obodonlashtirish ishlarida ham faol ishtirok etgani yaqqol ko‘rinadi. Uning tashabbusi bilan Imom qabri yonida jome masjid qurilishi va bog‘ hamda saroy loyihalarining amalga oshirilishi o‘sha davrda malikalarning madaniy va ma‘naviy hayotga katta hissa qo‘shganini bildiradi. Shuni anglash mumkinki, temuriy ayollarning saxovat, bunyodkorlik va dinu ma‘rifatga xizmat qilish kabi fazilatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Gavharshod begimning bunday ulug‘ inshootlarga sababchi bo‘lishi uning tarixda muhim homiy va madaniyat arbobi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos hissasini ochib beradi.

*“Бу жавобни эшитган Саййид ҳаётдан умидсизланиб, шаҳзоданинг онаси махди улё Гавҳаршод оғонинг кўмагидан паноҳ излади ва ундан ҳомийлик илтимос қилди. Шаҳзоданинг ш афқатли дили Саййиднинг нолаю тазаррулари ва паришон ҳолига ачиниб, уни бақддан бўшатишига буюрди-ю, аммо (мазкур қарзнинг) кундалик бўлагини тўлаб туриш шартини барқарор қолган эди”<sup>33</sup>.* Muallifning bu so‘zlaridan Gavharshodbegimning podshoh yonida eng yaqin maslahatgo‘yi va podshohga so‘zi va ta‘siri o‘tadigan asosiy insonlardan biri ekanligiga aslo shubhalanmaymiz. Gavharshod og‘o obrazida saroydagi ta‘sirli va himoyachi ayol qiyofasi ko‘rinadi. Matnda Саййиднинг og‘ir ahvoli va umidsizligi, uning adolat va homiylik izlab malika huzuriga murojaat qilishi tasvirlangan. Bu lavhada temuriylar davrida malikalarning faqat oilaviy doira bilan cheklanmay, balki ijtimoiy adolat va himoya masalalarida ham muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Gavharshod begimning aralashuvi natijasida Sayyidning yengillik olishi uning rahmdil va adolatparvar shaxs sifatidagi obrazini kuchaytiradi. Shu bilan birga, qarzning ma‘lum shart bilan saqlanib qolishi o‘sha davrda tartib-intizom va huquqiy munosabatlar ham muhim o‘rin tutganini bildiradi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning adolat, mehr-shafqat va ijtimoiy mas‘uliyat timsoli ekanini ochib beradi.

*“Бир неча кундан кейин улуғ бону Тумон оғо этиб келиб, онҳазрат у бонуни улуғлашда иззат-ҳурмат шартларини адо этиб, Кусавия қасабасини суюрғол тарзида унинг ноибларига топширди. Хозирда у қасаба ва атрофларида Тумон оғонинг хайрли ёдгорликларидан бўлган мадраса, хонақоҳ ва работ бағоят маъмурдир”<sup>34</sup>.* shbu parchada ulug‘ bonu Tuman og‘o obrazida temuriy malikalarning davlat va jamiyat hayotidagi nufuzli o‘rni yaqqol aks etadi. Matnda uning hurmat bilan qarshi olinishi, unga suygur‘ol tarzida hudud berilishi va izzat-ikrom ko‘rsatilishi saroyda malikalar ham alohida

<sup>32</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 114 б

<sup>33</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 124 б

<sup>34</sup> Самарқандий, А бдураззоқ //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон

Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 135 б

mavqega ega bo'lganini bildiradi. Temuriy ayollarning nafaqat saroy ichidagi shaxs, balki yer-mulk, obodonlashtirish va ma'naviy hayotga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan homiylar bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Tuman og'oni bilan bog'liq madrasa, xonaqoh va rabotlarning barpo etilishi uning xalq farovonligi va ilm-ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasini yaqqol namoyon etadi. Shu jihatdan matn temuriy malikalarning saxovatli, obro'li va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan yuksak maqomli shaxslar ekanini ko'rsatib beradi.

*“Мирзо Саъд Ваққоснинг муҳтарам ҳарамии Ағо беги мирзо Мироншоҳнинг қизи бўлиб, оқила ва олиий ҳиммат бир хотин эди. М азкур аҳволни кўриб, у ўз-ўзига: «Саъд Ваққос хато иш қилди, агар биз у бегона мамлакатга тушиб қолсак, энди ҳар лаҳзада унга қасд қилсалар керак: шундай бўлгач, туркмонлар ичида бизнинг ҳолимиз қандай кечади?» — деб айтди. У тadbирли, чуқур фикрли ва макр-ҳийлалли (аёл) бўлганлиги туфайли ўз навкарларини қуроллантириб қўйди ва туркмонлар етиб келгач, уларнинг ҳаммасини асир қилиб олди-да, Саъд Ваққосни душман тарафига ўтишга рағбатлантирувчилардан бўлган Темур шайх, Қутлуқхожа ва Шайх Али Зиндалар билан қўшиб қатлга етказди ва у шер хотин у номардларнинг калласини ўз навқари Ш ерзод орқали ҳазрат хоқони саид ҳузурига юбориб, бўлиб ўтган воқеа шарҳидан огоҳ қилди. Онҳазрат унинг бу мардоналиги учун кўндан-кўн таҳсинлар айтди”*<sup>35</sup>. Ag'o begi obrazi juda kuchli, tadbirkor va jasoratli ayol sifatida tasvirlangan. U og'ir vaziyatda qo'rqib qolmay, aksincha tezkor fikrlab, o'z va atrofida xavfsizligini ta'minlash uchun qat'iy choralar ko'radi. Temuriy malikalarning faqat yumshoq va saroy ichida qolgan obraz emas, balki zarur paytda davlat xavfsizligi va hayot-mamot masalasida ham keskin qaror qabul qila oladigan shaxslar bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Ag'o begimning jangovar ruh, donolik va qat'iyat bilan harakat qilishi uning “oqila va oliy himmat” ayol sifatidagi obrazini yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan matn temuriy ayollarning jasorat, aql va yetakchilik fazilatlarini yorqin anglashiladi.

*“Мирзо Улуғбек кўрагоннинг муҳтарам ҳарамии бўлмиш мирзо Муҳаммад Султоннинг қизи, улуғ бону, шавкатли хотин Ўга бегим жаннат боғига риҳлат қилди ва отасининг мадрасаси гумбази остига дафн этилди. М ирзо Улуғбек камоли виқор эгаси эканлигига қарамай, бесабру қарор бўлиб, рухсори оташ шуълаларини алангалантирар эди”*<sup>36</sup>. Ug'a begi obrazi orqali temuriylar saroyidagi ulug' malikalar taqdiri va ularning jamiyatdagi yuksak mavqei ifodalangan. Uning vafoti nafaqat oila, balki butun saroy uchun og'ir yo'qotish sifatida tasvirlanadi va bu holat hatto Mirzo Ulug'bek kabi viqorli hukmdorning ham chuqur iztirobga tushganini ko'rsatadi. Ko'rinadiki, temuriy malikalarning oddiy saroy ayoli emas, balki hurmat va ehtiromga sazovor, davlat hayotida ma'naviy o'rni katta bo'lgan shaxslar ekanini bildiradi. Ayniqsa, Ulug'bekning sabrsiz holati ularning o'zaro munosabatlari qanchalik samimiy va chuqur bo'lganini anglatadi. Shu jihatdan matn temuriy ayollarning nufuzli, ehtiromli va saroy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan obrazini ochib beradi.

Arab tarixchisi bo'lgan Ibn Arabshohning taqdiri Amir TemurShomni egallaganidan keyin Samarqand bilan bog'lanadi va Temur tarixini o'z ichiga olgan “Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur” asarini yozishga muvaffaq bo'ladi. U sohibqironga nisbatan dushmanlik kayfiyatida yozgan bo'lsa ham, ammo o'sha davrning ochiq-oydin hayotini tasvirlagan. Temuriylar sulolasining a'zolari haqida ham yetarlicha ma'lumotlar keltirib o'tgan.

<sup>35</sup> Самарқандий, А бдуразок //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 136 б

<sup>36</sup> Самарқандий, А бдуразок //Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн // А. Самарқандий; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: «Ўзбекистон», 2008- 155 б

*“Jahongir deb ataladigan o‘z o‘g‘lini ulardan nihoyatda qadr-qimmatli,sharafli aslzoda, yuzidan nur sochilgan,Shirindan ko‘ra ham xusndor,Vallodadan ko‘ra zarofatli bir qizga uylantirgan edi. Xonlar qizlaridan bo‘lganidan uni Xonzoda deb atardilar, Xonzoda Jahongirga Muhammad Sultonni tortiq etdi”.*<sup>37</sup>Xonzoda obrazi orqali temuriylar davridagi malikalarning nasl-nasab, siyosiy ittifoqlar va saroy madaniyatidagi o‘rni ifodalangan. Unda Xonzoda nihoyatda go‘zal, aslzoda va yuksak fazilatli qiz sifatida tasvirlanadi, bu esa temuriy saroyida ayollarga berilgan e‘tibor va hurmatni ko‘rsatadi. Menimcha, bu lavha nikohlarning faqat shaxsiy emas, balki sulolalar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi muhim vosita bo‘lganini anglatadi. Ayniqsa, Xonzoda orqali Jahongirga Muhammad Sultonning tortiq etilishi siyosiy ittifoqlarni mustahkamlashda malikalarning bevosita rolini ochib beradi. Shu jihatdan matn temuriy ayollarning nafaqat go‘zallik timsoli, balki sulolaviy siyosatning muhim bo‘g‘ini bo‘lganini ko‘rsatadi.

*“Shodmulkning ra‘yisiz Xalil Sultondan biron farmon sodir bo‘lmay,podshohlik siyosati uning zakosi nurisiz, yorug‘lik ko‘rmay qoldi. Shunday qilib, Xalil Sulton unga o‘z jilovini topshirib,murodigaga murodini tobe qildi. Bu narsa g‘oyatda kam aqllilik va devonalikdandir. Qanday qilib, o‘z podshohlik jilovini xotiniga tutqazgan podshohning omadi yurishsin?”*<sup>38</sup>

*“Uning xotinlaridan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika (Saroymulkxonim), eng husndori va sohijjamoli Kichik Malika (To‘kal xonim)bo‘lib,ular ikkalasi ham Xitoy podshohlarining qizlaridan edi.Yana shu kitob avvalida aytilgan amir Musoning qizi Tumon,shuningdek barkamollikda to‘lun oydek bo‘lib,g‘urubiga yaqinlashgan quyosh misoli Cho‘lpon edi. Yuqorida keltirilgan ikki malikani o‘z sevgisidan xavfsirab Shodmulk zaharladi”*<sup>39</sup>. Parchadan anglashiladiki, Shodmulk, Saroymulkxonim, To‘kal xonim va Tuman og‘o kabi temuriy malikalarning saroy hayotidagi o‘rni va ularning atrofidagi siyosiy murakkabliklar aks etadi. Ayniqsa, Shodmulkning Xalil Sulton ustidan kuchli ta‘sirga ega bo‘lib, hatto davlat ishlariga ham aralashgani tasvirlanadi. Menimcha, bu holat temuriylar davrida ayrim malikalar faqat saroy ichidagi shaxs emas, balki hukmdor qarorlariga bevosita ta‘sir ko‘rsata olgan siyosiy kuchga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Saroymulkxonim va To‘kal xonim kabi ayollarning go‘zalligi va yuksak maqomi ularning saroyda juda muhim o‘rin tutganini bildiradi. Biroq matnda hasad va raqobat natijasida yuzaga kelgan fojeali holatlar ham tilga olinib, saroy muhitining murakkab va xavfli ekanini ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, temuriy malikalarning bir tomondan qudratli va nufuzli, ikkinchi tomondan esa saroy intrigalari qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab taqdirleri ochib berilgan. Shu jihatdan matn ularning obrazini ham kuch, ham fojea bilan bog‘liq holda yoritadi.

G‘arb manbalari ichida Ryui Gonsales de Klavixoning kundaliklari alohida o‘rin tutadi. Bu manbaning qimmatli shundaki, Klavixo Samarqandga kelib, Amir Temur saroyi hayotini bevosita kuzatgan va ko‘rgan-kechirganlarini batafsil yozib qoldirgan. Uning asarida Samarqand shahri, saroy marosimlari, elchilarni qabul qilish tartibi, me‘moriy inshootlar hamda Amir Temurning hayotining so‘nggi davri haqida muhim ma‘lumotlar uchraydi. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, undagi ma‘lumotlar muallifning shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan bo‘lib, voqealar imkon qadar xolis yoritilgan.

*“Mironshoh yuqorida aytilganday vasvasa dardiga mubtalo bo‘lib qolgan vaqtda xotini Xonzoda yashirin tarzda uydan chiqib ketib, kecha-yu kunduz yo‘l bosib, Temurbek huzuriga yetib kelgan va voqeani unga so‘zlab bergan edi. Xonzoda Temurbekdan o‘g‘lining xatti-harakatlarini*

<sup>37</sup> Ибн Арабшоҳ //Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур //-Тошкент «Мехнат»-1992 102 б

<sup>38</sup>Ибн Арабшоҳ //Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур //-Тошкент «Мехнат»-1992 114 б

<sup>39</sup> Ибн Арабшоҳ //Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур //-Тошкент «Мехнат»-1992 118 б

*chuqur chuqur baholashni so‘raydi, chunki Mironshoh otaga qarshi isyon ko‘tarmoq niyatidadir degan fikrni aytadi”<sup>40</sup>*

*“Endilikda bu ayol Temurbekning bosh xotini hisoblanadi. Uni Qan‘o (Saroy Mulkxonim), ya‘ni ulug‘ malika, deb ataydilar”<sup>41</sup>* Misralardan anglaymizki, Xonzoda va Saroy Mulkxonim obrazlari orqali temuriylar saroyidagi ayollarning siyosiy jarayonlardagi muhim o‘rni yaqqol namoyon bo‘ladi. Xonzoda Mironshohning xatti-harakatlari haqida Temurbekka yetib borib, uni ogohlantirishi uning faqat saroy ayoli emas, balki davlat xavfsizligi va sulola barqarorligi uchun qayg‘uradigan dono shaxs ekanini ko‘rsatadi. Bu holat temuriy malikalarning hukmdor qarorlariga ta‘sir ko‘rsatadigan maslahatchi sifatida ham faol bo‘lganini bildiradi. Ayniqsa, voqealarni chuqur tahlil qilib, Temurbekka yetkazishi uning aql-zakovat va mas‘uliyatini ochib beradi. Shu bilan birga, Saroy Mulkxonimning “ulug‘ malika” sifatida tilga olinishi uning saroydagi eng yuksak maqom va hurmatga ega bo‘lgan shaxslardan biri ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan matn temuriy ayollarning siyosiy hushyorlik, donolik va sulola manfaatini himoya qilishdagi muhim rolini ochib beradi.

*“Xonzoda begim gohi-gohida yonida qatma-qat qo‘yilgan bolishlarga yonboshlardi. Begim ko‘rinishidan qirq yoshlar chamasidagi to‘ladan kelgan, oq yuzli ayol edi.”<sup>42</sup>* Xonzoda begimning saroy hayotidagi sokin, ichki dunyosi va insoniy qiyofasi tasvirlangan. U dam-badam bolishlarga yonboshlab, bu holat orqali uning hayoti faqat siyosiy yoki saroy intrigalari bilan emas, balki oddiy insoniy holatlar bilan ham kechganini ko‘rsatadi. Tushunishimiz mumkinki, temuriy malikalarning faqat qudratli va siyosiy obraz emas, balki oddiy inson sifatida ham o‘ziga xos jihatlari bo‘lganini ochib beradi. Ayniqsa, uning oq yuzli, to‘ladan kelgan ayol sifatidagi tasviri o‘sha davr estetik qarashlarini va ayol go‘zalligiga berilgan bahoni ham ifodalaydi. Shu jihatdan matn Xonzoda begim obrazini sokin, viqorli va hayotiy jihatdan tabiiy tarzda yoritadi

*“Saroy mulkxonim Rui Gonsalesning hech qachon may ichmaganligiga ishonmay, uni may ichishga ko‘ndirish uchun uzoq bahslashdi”<sup>43</sup>*

Saroy mulkxonim obrazining o‘ziga xos jihatlardan biri — uning ziyrakligi, qiziquvchanligi va saroy majlislaridagi faol ishtiroki namoyon bo‘ladi. Rui Gonsalesning hech qachon may ichmaganini eshitgan Saroy mulkxonim bunga darhol ishonmaydi va bu masalada u bilan uzoq suhbatlashadi. Ushbu holat malikaning keng dunyoqarashga ega bo‘lganini, saroyga kelgan xorijiy mehmonlar bilan muloqot qilishga qiziqqanini ko‘rsatadi. Parchadan Saroy mulkxonimning oddiy kuzatuvchi emas, balki suhbatlarda faol qatnashadigan, o‘z fikrini erkin bildiradigan va atrofdagi voqealarga befarq bo‘lmagan shaxs ekanligi anglashiladi. Shu jihatdan ushbu lavha temuriy malikalarning saroy hayotidagi faolligi, muloqot madaniyati va yuksak mavqeini ochib berishga xizmat qiladi.

*“Saroy mulkxonim bunday kiyingan edi: egnida zarhal bezakli, etagi yerda sudralib turgan uzun va keng, yengsiz va yoqasiz qizil shohi ko‘ylak, ko‘ylak belidan hech bir kesib toraytirilmagan holda etagigacha kengayib borgan. Malika oson yurishi uchun ko‘ylagi etagini tahminan o‘n besh nafarga yaqin ayol ko‘tarib borardi. Malikaning yuziga oftobdan saqlanish uchun oq o‘pa shu qadar ko‘p surtilgan ediki, chehrasi bamisoli oq qog‘ozga o‘xshardi. Malikaning yuziga yupqa oq mato tikilgan.*

<sup>40</sup> Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//-Тошкент “O‘zbekiston”-2010 67 б

<sup>41</sup> Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//-Тошкент “O‘zbekiston”-2010 92 б

<sup>42</sup> Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//-Тошкент “O‘zbekiston”-2010 98 б

<sup>43</sup> Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//-Тошкент “O‘zbekiston”-2010 102 б

*Ularga ko‘plab durri noyoblar, yoqut, feruza va boshqa xilma-xil qimmatbaho toshlar juda chiroyli qadalgan. Bosh kiyimning zarhal bilan tikilgan va durri noyob bilan bezatilgan chiroyli tilla bargak qadalgan. Qalpoq Qalpoq uchi bamisoli yaxshi ayvonga o‘xshaydi, favqulodda chiroyli, ikki barmoq yo‘g‘onligida yal-yal yonib turgan, tiniq uchta dona yoqut o‘rnatilgan.*

*Shuningdek unga qadangan, uzunligi ikki qarich oq jiganing ayrim parlari pastga egilgan, ba‘zilari yuzu ko‘zga tushib turardi. Zar iplar bilan boylangan parlar o‘rami oxiridagi jigaga qimmatbaho toshlar, marvaridlar qadangan bo‘lib, yurganda parpiraydi. Xonimning timqora sochlari yelkasiga tushib turardi. Ular (ya‘ni, bu erkaklar) qora sochni yuksak qadrlashardi, hatto sochni yanada qoraytirish uchun uni bo‘yaydilar. Xonim boshidagi qizil qalpoq tushib ketmasligi uchun bir necha ayol qo‘llari bilan tutib turardilar. Malika bilan uch yuzga yaqin ayol birga keldi. Malikaning yuziga oftob tushmasligi uchun bir kishi uning boshiga, nayzasimon tayoqqa o‘rnatilgan soyabonni tutib kelardi.*

*Xuddi chodirning tepa qismiday dum-dumaloq qilib oq shohidan yasalgan soyabon halqasimon yog‘och chiviqqa tortilgan edi. Haram og‘alari, ya‘ni bichilgan qullar xonim va ayollardan oldinda borardilar. Shunday qilib, xonim podshoh o‘ltirgan ko‘shkka kelib, Temurbekdan biroz orqaroqqa joylashdi. Xonim oldida ko‘rpachalar taxlami turardi. Xonimni kuzatib kelgan ayollarning hammasi ko‘shkdan tashqarida joylashdilar. Xonimning yonida uch ayol uning boshidagi qizil qalpoqni tushib ketmasligi uchun tutib turardi. Saroy Mulk xonim joylashgandan keyin ikkinchi saropardadan podshohning boshqa xotini chiqib keldi. U ham xonim singari kiyingan, ustida uchli qizil ko‘ylak, boshida qizil qalpoq, o‘sha-o‘sha rasm-rusum bilan ko‘p ayollar qurshovida podshoh o‘tirgan ko‘shkka kelib, Saroy Mulk xonimdan biroz pastroqdagi saraga o‘tirdi. Uni Kichixono (Kichik xonim) deyishadi, u podshohning ikkinchi xotini edi.”<sup>44</sup> Saroy Mulkxonim va Kichik xonim obrazlari orqali temuriy malikalarning ulug‘vorligi, saroydagi yuksak mavqei va o‘sha davr madaniyati o‘z aksini topgan. Muallif malikalarning kiyim-kechagi, taqinchoqlari va ularni kuzatib yuruvchi xizmatkorlar tasviri orqali ularning jamiyatdagi nufuzini ko‘rsatishga intiladi. Ayniqsa, Saroy Mulkxonimning qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan liboslari, bosh kiyimi va unga ko‘rsatilgan alohida ehtirom uning saroydagi eng yuqori maqomga ega ayollardan biri bo‘lganini anglatadi. Ushbu tasvirlar temuriy malikalarning nafaqat siyosiy va ijtimoiy jihatdan, balki saroy marosimlari va davlat nufuzini namoyish etishda ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Parchada malika bilan birga yuzlab ayollarning kelishi, uning liboslarini va bosh kiyimini ko‘tarib yuruvchi xizmatkorlarning mavjudligi temuriylar saroyidagi tartib-qoidalar va marosimlarning naqadar mukammal tashkil etilganidan dalolat beradi. Shuningdek, Saroy Mulkxonimning Temurbekka yaqin, ammo alohida hurmat bilan ajratilgan joyga o‘tirishi uning davlat va saroy hayotidagi nufuzini yanada yaqqolroq namoyon etadi. Kichik xonimning ham xuddi shunday tantanavor tarzda kirib kelishi temuriy malikalar saroyda muayyan maqom va martabaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.*

*Tushunishimiz mumkinki, temuriy malikalarning tashqi qiyofasi orqali ularning ichki qudrati va ijtimoiy mavqeini ifodalashga xizmat qiladi. Bu yerda go‘zallik, hashamat va salobat bir-biri bilan uyg‘unlashib, temuriy ayollarning yuksak maqomdagi obrazini yaratadi. Shu jihatdan parcha temuriy malikalarning saroy madaniyatidagi o‘rni, ularga ko‘rsatilgan ehtirom va ularning davlat nufuzining muhim ramzlaridan biri bo‘lganini yoritib beradi*

*“Xonzoda tezlik bilan o‘g‘li Umar Mirzo huzuriga borib, “O‘g‘lim, otang podshoh bo‘lishi kerak, hammaning istagi shunday, sen esa unga nedir xalal berasan”, deydi. Umar Mirzo: “Otamga qarshilik*

<sup>44</sup> Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//- Тошкент “O‘zbekiston”-2010 106 б

qilishdan xudo saqlasin, otamning hamma amr-farmoni boshim ustiga", deb javob qiladi. Xonzoda o'g'lining gaplarini eriga yetkazadi. Shundan keyin Mironshoh hokimiyatni o'ziga qay yo'sinda taqdim etish haqida ukasi bilan maslahatlashib olish uchun o'g'li Abubakrni qo'shinsiz, salt holda Umar Mirzo huzuriga yuboradi."<sup>45</sup> Xonzoda obrazi temuriylar sulolasidagi oqila, siyosiy jihatdan hushyor va sulola manfaatlarini ko'zlaydigan ayol sifatida namoyon bo'ladi. U oiladagi kelishmovchilik yoki ehtimoliy nizoning oldini olish maqsadida o'g'li Umar Mirzo bilan suhbatlashib, uni otasiga sadoqatli bo'lishga undaydi. Natijada bu holat Xonzodaning nafaqat mehribon ona, balki sulola birligi va siyosiy barqarorlik uchun mas'uliyat his qiladigan dono ayol bo'lganini ko'rsatadi. Parchada Xonzoda vositachilik vazifasini bajaradi. U o'g'lining fikrini eriga yetkazib, ota va farzand o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa temuriy malikalarning ayrim hollarda saroydagi murakkab siyosiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek mumtoz adabiyotida Temuriy malikalar obrazi yuksak badiiy va ma'naviy mazmun kasb etadi. Adabiy va tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Temuriy malikalar nafaqat davlat boshqaruvi va siyosiy hayotda, balki ilm-fan, ma'rifat hamda madaniyat rivojida ham muhim o'rin tutganlar. Ularning donoligi, jasorati, vatanparvarligi, ilmga homiyliigi va yuksak axloqiy fazilatlarini mumtoz adabiyotda ideal ayol timsoli sifatida tasvirlangan.

Tadqiqot davomida o'rganilgan manbalar Temuriy malikalar obrazining tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg'unligida yaratilganligini ko'rsatdi. Ushbu obrazlar bugungi kunda ham yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va komil inson fazilatlarini ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Temuriy malikalar merosini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyotidagi ayol obrazining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008;
2. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997;
3. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форсчадан Ю.Ҳакимжонов таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996;
4. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). – Тошкент: Ижод, 1992;
5. Хафиз Абри. Зайл-и Джами ат-таварих-и Рашиди. Пер. С персидского Э.Р.Тальшханова. – Казан, 2011;
6. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний (Муиний тарихлари танланмаси). – Тошкент: Ўзбекистон, 2011;
7. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). Пер. со староиспанского И.С.Мироковой. – М: Наука, 1990;
8. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994;
9. Фасих Аҳмад ибн Жалолиддин Муҳаммад ал-Хавофи. Мужмали Фасихий Фасих тўплами. Д.Ю.Юсупов таржимаси. – Тошкент: Фан, 2018;

<sup>45</sup>Руи Гонсалес де Клавихо // Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар)//- Тошкент "O'zbekiston"-2010 110 б

10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002;
11. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Маънавият, 1998.
12. Муҳаммадҳакимхан Тўра. Мунтахаб ат-таварих/ Форстилидан таржимон Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.